

PTP Guidelines for Reading Skills

Reading skills in this guideline are defined by the level of the individual's ability to read written texts for the purpose of getting gist, specific information, detailed understanding, and implications.

Novice: this level is characterized by an ability to understand short (50-150 words) simple sentences on familiar matters containing highly frequent words and syntax. The common text sources are from menus, brochures, public notices, and regulations.

Novice 1

- The reader can understand short sentences that are loosely connected, and get some main ideas from a given passage.
- Texts usually do not exceed high-frequency structural patterns and vocabulary.
- Descriptions of persons, places, or things typify the texts at this level.

Example 1: Airline ticket

The image shows a rectangular advertisement for Domodedovo Airlines. On the left, there is a logo with a stylized 'D' and 'A' inside a circle. To the right of the logo, the text reads 'ДОМОДЕДОВСКИЕ АВИАЛИНИИ' and 'ДОМОДЕДОВО AIRLINES'. Below this, the word 'АВИАЧИПТАЛАР' is written in large, bold, red letters. Underneath, there are two lines of text: 'Тошкент - Москва - Тошкент' and 'Самарқанд - Москва - Самарқанд'. Below that, it says 'Шунингдек, РОССИЯ, МДҲ ва ДУНЁ БЎЙЛАБ!' in red. Further down, it says 'Қуйдаги манзилда жойлашган' and 'АВИАКАССАлардан чипта харид қилишингиз мумкин'. On the right side of the advertisement, there is a box with a red border containing the text 'САМАРҚАНД:' in yellow. Below this, it says 'Гагарин кўчаси, 84-уй.' and 'Собиқ "АНАХИТ" дўкони' in black. Below that, the phone number 'тел: 8(3662) 34 41 01' is listed. Below a horizontal line, it says 'Али Қушчи кўчаси, 8-уй' and 'тел: 8(3662) 21 12 00'. At the bottom of the advertisement, the slogan 'ХАВФСИЗЛИК, ИШОНЧЛИЛИК, ҚУЛАЙЛИК!' is written in large, bold, red letters.

Example 2: Ad-Apartment sale

Toshkent shahar, Markaz 1 dahasi, 5 qavatli binoning 3-qavatida joylashgan ikki xonali kvartira sotiladi. Kvartira yevropacha usulda remont qilingan. Xonalari alohida, kirganda dahlizi bor. Balkon 2x6 metr, oynavand. Oshxonasida yangi gazplita o'rnatilgan.

Kvartira "Bolalar dunyosi" do'koni orqasida joylashgan. "Amir Temur xiyoboni" metro bekatiga yaqin. Narxi kelishilgan holda. Qo'shimcha ma'lumotlar uchun kech soat oltidan sakkizgacha 245-46-19 telefon raqamlariga qon'g'roq qiling.

Novice 2

- The reader can understand short and simply connected paragraphs and get some main ideas.
- Texts at this level are usually limited to the attached range of syntactic structures and vocabulary.
- The reader can follow a text with a clear internal structural as can be shown in chronological sequenced written materials.
- The reader can locate specific information from a paragraph.

Example 1: A brief biography of a famous Uzbek poetess

Zulfiya 1915-yilning 1-martida Toshkentda tug'ildi. O'rta maktabdan so'ng pedagogika institutida va aspiranturada o'qidi. 1938 – 1948-yillarda “Bolalar nashriyoti”da muharrir, keyinchalik O'zbekiston Davlat Nashriyotida bo'lim boshlig'i, 1950-yildan boshlab “Saodat” jurnalida ishladi.

Zulfiya ko'plab she'rlar yozdi, uning birinchi she'riy to'plami 1932-yilda nashr qilindi. Zulfiya 1935-yilda shoir Hamid Olimjonga turmushga chiqdi. Hamid Olimjonning vafotidan keyin, ko'plab mazhun she'rlar yozdi.

Umrining oxirlarida, Zulfiya tarjimonlik bilan ham shug'ullandi. U Pushkin, Nekrasov, Ukrainka va Inber asarlarini o'zbek tiliga tarjima qildi. U 1996-yilda vafot etdi.

Example 2: Ad, requirements for university admission

**ЎЗБЕКИСТОН RESPUBLIKASI OLIY VA ЎRTA MAHSUS
ТАЪЛИМ ВАЗИРЛИГИ**

**ЎЗБЕКИСТОН ДАВЛАТ ЖАҲОН ТИЛЛАРИ
УНИВЕРСИТЕТИ**

2003/2004 ўқув йили учун

Абитуриентларнинг хужжатлари қабул комиссиялари томонидан 2003 йилнинг 20 июлига қадар қабул қилинади.

Манзилимиз: Тошкент ш., А.Икромов тумани, академик Решетов к., 4-уй (аввалги Республика рус тили ва адабиёти институти). «Пахтакор» метросидан 35-автобус, «Чилонзор» метросидан 20-автобус, 37-йўналишли такси катнайди.

Телефонлар: 75-82-21, 75-89-51.

Университет қабул ҳайъатига топшириладиган хужжатлар қуйидагилардан иборат:

- университет ректори номига ариза;
- ўрта маълумоти ҳақида етуклик еттестати ёки дипломнинг асл нусхаси;
- 3x4 см ҳажмидаги олти дона фотосурат;
- 086/У шаклдаги тиббий маълумотнома;
- паспорт ва ҳарбий хизматга тегишли хужжат шахсан кўрсатилади.

Тест синовлари кундузги бўлимда 1 август куни ўтказилади.

Талабалikka танлов асосида қабул қилиш абитуриентнинг тест синовларида тўпланган балларига асосан ҳал қилинади.

Халқаро журналистика ва испан филологияси факультетларида тест натижаларидан ташқари ижодий имтиҳонда олинган баллар ҳам ҳисобга олинади.

Ўзбекистон Республикаси олий ўқув юртларининг 1 курсларига 2003/2004 ўқув йилида талабаларни қабул қилиш тартиб ва қоидалари тўғрисидаги низом асосида амалга оширилади.

Омад сизга ёр бўлсин!

Intermediate: this level is characterized by the reader's ability to understand factual information and main ideas from a relatively short passage (150-250 words) that consists of several paragraphs. The texts at this level could be found from the following materials: advertising materials, business and personal letters, abstract, newspaper, and magazines.

Intermediate 1

- The reader can understand and identify main ideas from a text consisting of several short paragraphs.
- Range of syntactic structures and vocabulary comprising texts is still limited.
- Lexical guessing for the unknown words based on the surrounding context is possible.

Example 1: Geography, climate and natural disasters in Uzbekistan and Central Asia

O'zbekiston Markaziy Osiyoning o'rta va shimoliy qismida joylashgan. U Markaziy Osiyoning barcha mamlakatlari bilan chegaradosh. U shimoli-sharqda Qirg'iziston, shimol va shimoli-g'arbda Qozog'iston, janubi-g'arbda Turkmaniston, janubi-sharqda Tojikiston Respublikalari bilan, janubda qisman Afg'oniston bilan chegaradosh. O'zbekistonning maydoni 444700 kvadrat kilometr va u Kaliforniya shtatidan biroz kattaroq.

O'zbekiston maydonining ko'p qismi tekislik, oz qismi tog' va adirlardan iborat. O'zbekiston hududidan Markaziy Osiyoning eng katta daryolari – Amudaryo va Sirdaryo oqib o'tadi. Bu ikki daryo orasidagi hudud "Turon pasttekisligi" deb ataladi. Bu tekislikning ko'p qismi Qizilqumdan iborat. Respublikaning sharqi va janubi-sharqiy qismida Tyanshan, Oloy, Turkiston, Zarafshon va Hisor tog'lari bor. Bu tog'lar orasida vodiylar joylashgan. Aholining asosiy qismi vodiylarda yashaydi.

O'zbekistonning iqlimi kontinental. Bu yerda odatda qishda sovuq va yozda issiq bo'ladi. Bahor va kuz oylarida tez-tez yomg'ir yog'adi va havo iliq bo'ladi.

O'zbekistonda har xil tabiiy ofatlar bo'lib turadi. Masalan, 1966-yilda Toshkentda kuchli zilzila bo'lib o'tdi. Zilzila natijasida Toshkentning qadimiy binolari vayron bo'ldi. Zilziladan keyin Toshkentda yangi va zamonaviy binolar qurildi.

Example 2: the history of tobacco

Тамаки Америка қитъасидан келиб чиққан. Уни Европага XV аср охирида денгизчи ва кашфиётчи Христофор Колумб олиб кирган. 1560-йилда Лиссабон саройида Франция элчиси Жан Нико ("никотин" сўзи унинг исмидан олинган) тамаки баргларини Франция қироличаси Екатерина Медичига ҳадя қилади. Одамлар ўша вақтда тамакини бош оғригини қолдирадиган дори сифатида билишарди. Қаттиқ бош оғригидан азоб чеккан қиролича совгани жон дили билан қабул қилади, сўнг бу ўсимлик Франция бўйлаб тарқалади.

Шундан сўнг тамаки Европанинг ғарбий қирғоқларидан Эски дунё мамлакатлари бўйлаб тарқала бошлаган. Одамлар орасида тамаки шу даражда машҳур бўлиб кетган-ки, 16 асрга келиб Европанинг баъзи давлатларида тамаки барглари пул ўрнида ишлата бошланган. 16 асрнинг ўрталарига келиб, тамаки зараридан касалланган кишиларнинг сони кўпайган. Баъзи давлатларда чекувчи кишиларга жазолар белгиланган, уларни черковга киритиши тақиқланган. Афсуски, жазо ва жарималар ушбу салбий одатнинг тарқалишини тўхтата олмаган.

Intermediate 2

- The reader can understand longer paragraphs and identify main ideas from a text consisting of complex sentences, for example, those containing subordinated clauses.
- The reader can make appropriate inferences about the text.
- Range of syntactic structures and vocabulary comprising texts is larger. However, the reader often fails to distinguish subtle differences among synonyms.
- Misinterpretations with structurally complicated (i.e., containing subordinated clauses) texts still occur, and deliberate rereading is necessary for complete understanding.

Example 1: History of a city

Тошкент – Марказий Осиёдаги энг қадимги шаҳарларидан бири. Тошкент 5 – 9 асрларда Чоч, Шош, Бинкат ва Тарканд деб аталган. У 6-асрда Турк хоқонлиги таркибига қўшилган. Ўша даврда шаҳар кучли мудофаа девори билан ўралган. Ўша даврларда Буюк Ипак йўлининг бир тармоғи шаҳар орқали ўтган ва шаҳарнинг ривожланишида муҳим рол ўйнаган.

8-аср бошларида араблар Тошкентни босиб олиб, вайрон қилганлар. 9-асрда шаҳар аввалги ўрнидан биров узокроқда қайта барпо бўлган ва Бинканд деб аталган. 10-асрларда Бинканд йирик савдо марказига айланган. Баъзи тарихий манбаларга кўра, бу шаҳар 11-асрдан бошлаб Тошкент деб аталган. 13-асрда Мўғул қўшинларига қарши бўлган урушда ёқиб юборилган. 14-аср охирида эса Тошкент Амир Темур салтанатининг шарқдаги муҳим стратегик шаҳарга айланган.

19-аср ўрталарида Тошкент Россия билан савдо қилувчи энг йирик савдо марказига айланган. 1865-йил июн ойида Тошкентни Россия қўшинлари босиб олганлар. 1917-йил ноябрида Тошкентда Совет ҳокимияти ўрнатилган. 1918-йилнинг апрелидан бошлаб Тошкент Туркистон АССР пойтахти, 1930-йилда Ўзбекистон ССР пойтахти бўлган. 1941–1945 йилларда Тошкент саноати бутунлай фронтга хизмат қилган. Урушдан кейин шаҳар тез ўсган. 1966-йилда бўлган zilзиладан кейин кўплаб янги турар жойлар, жамоат бинолари ва метрополитен қурилган.

1991-йил 1-сентябрдан Тошкент мустақил Ўзбекистон Республикасининг пойтахти.

Example 2: Summary of the story described in a book (like a book review that critics write on the back of the book)

“Ayriliq ostonasi” – Yozuvchi Jo‘ ra Fozilning “Ayriliq ostonasi” kitobiga “Ayriliq ostonasi” tarixiy romani. Kitobga “Buxoroyi Sharif elchilari” tarixiy qissasi va zamonaviy mavzudagi ikkita hikoyasi ham kiritilgan. 288 bet. O‘zbek tilida kirill yozuvida. 2006 yil.

“Ayriliq ostonasi” tarixiy romani qadimgi turkiy larning erk va ozodlik uchun kurashiga bag‘ishlangan. Unda xoqon Botur Tangriqut (O‘g‘uzxon)ning ulkan saltanat tuzish yo‘lidagi intilishlari, kurashlari, mashaqqatlari va oxir-oqibat erishgan g‘alabalari qalamga olingan. O‘g‘uzxon yoshligidanoq harbiy ilmga juda qiziqadi. U valiahd shahzoda edi. Lekin o‘gay onasi juda yomon ko‘rar va o‘z o‘g‘lini taxt vorisligiga mo‘ljallardi. Otasi Tuman Tangriqut ham O‘g‘uzxonni negadir yoqtirmasdi. Oqibatda xoqon Tuman O‘g‘uzxonni o‘ziga dushman mamlakat – Ulug‘ Yovchilar xoni saroyiga garov tariqasida yuboradi. Bu – o‘sha paytdagi davlatlar diplomatiyasining o‘ziga xos usuli bo‘lib, agar Tuman Tangriqut Ulug‘ Yovchilarga urush ochsa, o‘g‘li O‘g‘uzxon dushman qo‘lida muqarrar halok bo‘lardi. Ko‘p o‘tmay xoqon Tuman Ulug‘ Yovchilar mamlakatiga urush

e'lon qiladi. Lekin garovdagi shahzoda baxtli tasodif tufayli halokatli tuzoqdan qutuladi. Keyinchalik otasi roziligi bilan otliq qo' shin tuzadi va ovozli o'q-yoy ixtiro etadi. Oxir-oqibat jangda g' olib chiqib, saltanat taxtini qo' lga kritadi va buyuk imperiyaga asos soladi.

Advanced: this level is characterized by the reader's ability to understand explicit and implicit meanings of a wide range of long (250 words above) and complex texts consisting of several paragraphs.

Advanced 1

- The reader can identify the hierarchical level of information (i.e., the main points and relevant supporting details) from multi-paragraph prose presented with a clear underlying structure.
- Insufficient target-language cultural knowledge or limited vocabulary may still interfere with complete understanding of a text.
- The reader can make appropriate inferences about texts dealing with various topics.

Example: Book review

Afg' on adibi Xolid Husayniyning "Varrak ortidan uchgan armonlar" asarida sovetlar bosqinidan avvalgi Afg' oniston, Tolibon hokimiyati, xalq boshiga tushgan qora kunlar – bularning bari afg' on bolasi tilidan hikoya qilinadi.

Amir San-Fransiskoda yashayotgan afg' on. Kutilmagan xabar uni vataniga, Tolibon hukmronlik qilayotgan Afg' onistonga qaytishga majbur qiladi. Xaroba Afg' oniston bo' ylab marhum do' sti Xasanning o' g'li – Suhrobni qidirar ekan, qahramonimiz Kobuldagi beg' ubor bolalik yillarini esga oladi. Oradan ko' p o' tmay Amir otasi bilan Kobulni tark etib, keyinchalik Amerikaga yo' l oladi. Ikki do' st o' rtasida aloqa shu yerda uziladi. Oradan yillar o' tadi, biroq Amirni vijdon azobi o' rtaydi. Suhrobni izlab boradi.

Asarda asosan Amirning Amerikadagi hayoti, o' zga madaniyatga moslashish, Afg' onistonga safari va u yerda boshidan kechirgan voqealari haqida hikoya qiladi. 2008-yilda Gollivud kino ustasi Mark Foster asarni ekranlashtirdi. Filmda turli millat vakillari suratga tushgan. Asli misrlik Xolid Abdulla Amir rolini ijro etish uchun bir oy davomida dari tilini o' rgandi. Tili ojizlik qilganida imo-ishorani ishga soldi.

Amir va Xasanning bolalikdagi obrazini afg' onlar - Zakariya Ibrohimiy va Ahmad Xon Mahmudzoda o' ynagan. Bu – ularning ilk roli. Kartina Gollivuddagi nufuzli mukofotlardan biri Golden Globe, Oltin Globus sovriniga ko' rsatilgan.

Advanced 2

- The reader can comprehend discourse organization from a text consisting of multiple paragraphs, which are longer and more complex than advanced 1–level texts.
- The reader can detect the author's attitude or values in the main topics addressed in the text.
- The reader begins to comprehend the aesthetic use of target language and its literary styles, and can appreciate some fictions.

Example 1: Newspaper column on environmental issues

Kopengagenda o' tayotgan iqlimga doir xalqaro anjuman boshi berk ko' chaga kirib qolgan. Bugun rivojlanayotgan davlatlar vakillari muzokara zalini tark etgan. Ba'zi arboblal sammit natijasiz tugashi mumkin, deya xavotir bildirmoqda.

Bugun rivojlanayotgan davlatlar BMT shafeligida o' tayotgan tadbirdan chiqib ketgan. Ular Kioto Protokoli – atmosferada zararli gazlarni kamaytirish bo' yicha xalqaro bitim muddati yetti yilga uzaytirilsin, deb talab qo' ymoqda.

Boy mamlakatlar sanoatini jilovlantirishi mumkin bo' lgan bitim muddati 2012 yilda tugaydi. O' ziga to' q, yirik mamlakatlar bu hujjatdan voz kechish tarafdori. AQSh, Xitoy va Hindiston kabi havoni eng ko' p iflos qilayotgan davlatlar Kioto protokolini imzolamagan. Avstraliya Bosh vaziri Kevin Rud nazarida sammit natijasiz tugashi mumkin. Hafta oxirida anjuman hal qiluvchi, yakuniy pallaga kirishi kerak. Ammo havoni kim ko' proq bulg' amoqda, majburiyatni kim va qancha bo' yniga olishga tayyor, zararli gazlarni qay miqdorda kamaytirish kerak kabi savollar hamon ochiq qolmoqda.

Bu orada "Vashington Post" xabariga ko' ra, Qo' shma Shtatlar xalqaro maydonda toza energiya ishlab chiqarish, yuksak texnologiya taraqqiyoti uchun 350 million dollar ajratishi mumkin. Prezident Barak Obama hafta oxirida Kopengagen sammitiga boradi. AQSh qonunchilari Obamadan anjumanda ko' p va'da bermaslikni, ortiqcha majburiyatni bo' yniga olmaslikni so' ramoqda.

Respublikachi qonunchi Jeyms Inxofe fikricha, Obama Kongress bilan maslahat qilmay turib, biror va'da berishi mumkin emas. Demokrat kongressmen Edvard Marki AQSh Vakillar Palatasida iqlim o' zgarishiga doir qonun loyihasi mualliflaridan biri. Uning aytishicha, qonunni imkon qadar tezroq qabul qilish lozim.

Example 2: Interview and an opinion on a controversial issue

Ўзбекистонга қайтиб, давлатга астойдил хизмат қилади, деган шарт билан хориж олийгоҳларида ўқишга юборилган ўзбек ёшларининг аксари ватанга қайтишни истамади. Бунинг учун улар оилалари ҳамон товон пули тўлашга мажбурланмоқда. 1997 йилда Ўзбекистон Республикаси Президентининг ёш иқтидорли талабаларни хорижга ўқишга юборишни қўллаб-қувватловчи "Умид" жамғармаси ташиқил этилган эди. Кейинчалик истиқболли ёш педагог ва илмий кадрларнинг малакасини ошириши мақсадида "Истеъдод" жамғармасига айлантирилган мазкур тузилма орқали кўпчилик ёшлар хорижга таълим олиши учун кетишди.

Бироқ уларнинг кўпчилиги турли сабабларга кўра юртга қайтишмади. Кимгадир хориждаги фаровон ҳаёт ёқиб тушган бўлса, кимдир Ўзбекистондаги давлат идорасида кам ойликка ишлашни хоҳламади. Яна кимдир ўз истиқболини хорижда ёрқинроқ тасаввур қилди. Эндиликда жамғарма чет давлатларда қолиб кетган ўша талабаларнинг ота-оналаридан ўқишга сарфланган маблағларни қайтаришни талаб этмоқда.

Тошкент шаҳрида яшовчи Ҳамида опанинг фарзанди саккиз йил аввал "Умид" жамғармаси орқали Буюк Британиянинг Манчестер университетида ўқишга кетиб, ўша ерда жойлашиб қолган. Унинг ўғлини хорижда ўқитган жамғарма энди ўша талабанинг онасидан 35 минг АҚШ доллари ёки 60 миллион сўм талаб қилмоқда. "Улар 60 миллион харажат қилмаганда. Нарҳини айтишса, биз тўлаймиз. Ҳамма бола қатори менинг болам ҳам у ёқда қолиб кетган. 800 нафар бола қолиб кетганку, менинг болам ҳам қолиб кетган," - дейди Ҳамида она.

"Эзулик" жамиятига кўра, шунга ўхшаш тўполонлар ўнлаб, балки юзлаб хонадонларда кечмоқда. Ташиқилот вакили Абдурахмон Ташановга кўра, "Умид"

жамғармаси орқали чет элларга ўқишга кетган юзлаб талабалар ўша давлатларда қолиб қолишмоқда.

"Умид жамғармасининг грандлари билан ўқиб келган жуда кўп талабаларни биладан. Улар бу ерда энг паст ойликларга ишлашга мажбур бўлишяпти. Болалар ўзининг истиқболини кўрмаяпти. Бу ерда қандайдир тил билган болалар ўсаётгани йўқ. Кимнингдир эркатойи бўлганлар ўсиб кетаяпти. Ўзбекистондаги ҳаётни улар кўриб турибди. Шу боисдан улар Ўзбекистонга келишга иштиёқ қилишаётгани йўқ. Мен жуда кўпчилигини жуда яхши танийман," - дейди Абдураҳмон Ташанов.